



**“TANOBCHILAR” SATIRASIDA XALQNING IQTISODIY
HAYOTI TASVIRI**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti To’rtko’l fakulteti

Soliq va soliqqa tortish yo‘nalishi,

2- kurs bakalavriyati talabasi

Muhamedov Muzaffarjon Axrorjon o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ta’riflar keltirilgan. Hayot yo‘lidagi haqiqatlar, ilmni qay darajada qadrlagani haqida so‘z olib borilgan. O‘zi yashagan davrda ijtimoiy-iqtisodiy jarayon haqida ya’ni aholiningadolat darajasi haqida tanobchilar asaridan parchalar keltirib o’tilgan. Muqimiyning hayotini va asarlarini nafaqat O‘zbekistonda balkim butun dunyoda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Ijod, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, tanob,adolat, ma’rifat, ilm, bilim, hurmat, shijoat, chirkin, soliq, tanqid,adolat,xalqparvar.

Asl ismi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyy Mirzaxo‘ja o‘g‘li 1850-yil 1-may kuni Qo’qon shahrida tavallud topgan. Muqimiyy garchi nonvoylar oilasida dunyoga kelgan bo‘lsada. Muqumiyy yoshlik davridan she’riyatga adabiyotga qiziqishi yuqori bo’lgan. U bolalik davridan Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlar ijodi ostida ulg‘aygan.

Muqimiyy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiyy ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ijodining ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardonlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an’analardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan o‘rgandi, ular g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi. Jomiyni o‘ziga ustoz bildi. O‘zbek, fors mumtoz shoirlari an’analarini davom ettirdi. O‘zbek adabiyotida demokratik



yo‘nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog‘liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilg‘or fikrli shoirlar o‘zbek adabieti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirikasi chuqur optimizm bilan sug‘orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan.

Uning deyarli barcha asarlari haqiqiyqatga asoslangan. Uning asarlari xalqparvarligi, xalqchilligi va adolatga qaratilganligi bilan alohida ajaralib turgan. Ayniqsa Muqimiyning „Tanobchilar“ asarida tanob bu yer o‘lhash vazifasini bajargan. Ya’ni odamlar yer solig‘ini bevosita ular egalik qilayotgan yer maydonidan kelib chiqib to‘laganlar. Shuning uchun u davrda tanobchilar aholi yer maydonlaridan kelib chiqqan holda soliq yig‘imlarini amalga oshirgan. Asarda „Xoh tanobingni du chandon qilay“ degan misra bor. Bu „Men xohlasam tanobingni ikki barobarga oshiraman“ degan ma’noni bildiradi. Ya’ni noqonuniy ravishda yer maydonlarini ko‘p ko‘rsatib, undan olinadigan soliq miqdorini oshirish nazarda tutilgan. Bu davrda soliqlar bevosita soliq yig‘uvchi shaxslar xohishiga ko‘ra amalga oshirilgan. Ya’ni soliq tizimining har bir bo‘g‘inida bevosita odamlar tomonidan boshqarilgan. Shundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilganligini aniqlashning deyarli imkon mavjud bo‘lmagan. Shuning uchun aholining yer maydonlarini va undan undiriladigan soliq miqdorlarini belgilash bevosita tanobchilarga bog‘liq bo‘lgan.

Muqimiy Qo‘qondagi Nodira bino qildirgan „Moxlar oyim“ madrasasida, so‘ng Buxoro madrasalaridan birida o‘qigan (1864-1865; 1875-1876). 1876-yilda Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan faoliyati vaqtida amaldorlarning qallobliklarini befarq kuzata olmasdan „Tanobchilar“ satirasini yozgan. Muqimiy „Tanobchilar“ asarini bevosita shu davming soliq tizimiga bog‘lagan holda yozgan. Ya’ni bu davrdagi ba’zi adolatsiz tanobchilaming o‘z asarida gavdalantirish va ular qilayotgan noto‘g‘ri ishlardan ogohlantirish orqali odamlami, ayniqsa shu tizim vakillari bo‘lmish tanobchilami insofga, adolatga chaqirgan. Bu qisqa tanqidiy-hajviy asar yordamida Muqimiy o‘zi yashagan davr ijtimoiy-iqtisodiy holatini yoritib bera olgan. Asarda kambag‘al chorakor dehqon mehnatidan o‘z manfaatlari uchun foydalangan, ularni aldab katta zarar yetkazgan



Sulton Ali va Hakimjon kabi hiylakor mahalliy amaldorlar qiyofasi shoir tomonidan o‘tkir, ta’sirchan misralarda fosh etiladi. „Tanobchilar“ satirik hikoyasi amaldorlar zulmiga yoliqqa dehqon arz-dodi bilan boshlanadi.

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar,
Adl qulog’ila eshit holimi
Zulm qilur, baski, menga zolimi,
O‘n ikki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohat-u menga azob

Umuman olganda "Tanob " sòzining luğaviy ma'nosi arabchadan olingan bòlib , "chilvir , arqon " degan ma'nolarni anglatadi . Tanob birinchidan , Örta Osiyo , xususan , Özbekiston hududida qòllanilgan uzunlik ölchov birligi . XVII asrda qiymati 39,9 metrga teng bòlgan . Ikkinchidan , Örta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gaz dan iborat bòlgan maydonga teng ya'ni ekin maydonini ölchash uchun qòllanilgan yuza birligi hisoblanilgan . Bir yilda (òn ikki oyda) bir marta kelib , lekin aholi uchun kòpdan kòp qiyinchiliklar olib kelgani xususida fikrlar bildirilgan

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.
Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, (qilmay nifoq),
Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja chirog’ yog’i, Hakimjon pilik.
Bir-birisiga solishurlar o’run,
Erta-yu kech o’pushib og’iz-burun.
Sallalari boshlarida oq savat,
Ko‘rpacha tagda hama vaqt uch qavat.
Birlari mo‘ltoninamo, hiylagar,
Birlaridur kunda pix-u gavda xar.
Og’izlari maqtanib o‘n besh qarish,



Mayda suxan, ezma (churuk), zanchalish.

Shoir yuqoridagi misralarda ikki mansab egalarining bir-biriga munosabatini tasvirlar ekan, bu orqali shu davrda ijtimoiy va davlat boshqaruvidagi holatlarni kuzatish mumkin. Sulton Ali va Hakimjon xalqdan oz manfaati yoldida foydalangan va bunda oz maqsadlariga erishish uchun xatto bir-biri bilan aka-ukalardan munosabatda bolgan. Shoir ularning fe'l-atvorini korigib, ularning biri xotin va biri kuyov deya kulguga oladi. Hatto ular bir dasturxonda osh yesalar, ortada gosht a ilik sarson. Ertayu kech bir joydan pinak buzmay solingan uch qavat korpacha kechgacha eziladi. Bu amaldorlar juda ezma va maqtanchon shaxs sifatida ham korsatilgan. Bunday illatlarni kasb qilgan amaldorlar xalqning azobi. Hozirgi kunga talqin qilib aytadigan bolsak, har qanday mansabdor shaxs, rahbarlar uzoq boliishi lozim bolgan illatlardir.

Tanob mahali qishloqlarga chiqib, odamlarni qaqshatadi, ham pora oladi, ham yerini ortiqcha korsatib, xonavayron qiladi. Bor yoy qerdan keladigan daromad ham kop emas, ammo ular bilan kelisholmagan xalqning bir tanob yerini ikki, uch deb yozib, bor yogni olib ketadi. Qarshi chiqmoqqa dovyuraklik yetishmas balki, chunki bu ikkiyuzlamachilar bir qancha bolmagur gaplar bilan sodda, ishonuvchan xalqni aldaydi. Ozlarini qanday avliyolarning avlodi yoki aloqali inson ekanini aytib maqtanishadi. Hozirgi zamon holati bilan taqqoslaydigan bolsak, yolgon va yod goyalarni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda qollash bilan tenglashtirish mumkin. Aytish mumkinki, ushbu misralardan xulosa osha davr hayotidagi xato-yu kamchiliklarga yana bir dalil hisoblanadi

Iqtisodiy jihatdan zorga kunini koredigan, birlamchi ehtiyojini ham qondirish mushkul bolib oddiy aholiga yana qoshimcha bu kamsitilishlar juda katta zarba bolgan. Muqimiyl bu nohaqliklarga jim qarab tura olmay, jasorat bilan "Tanobchilar" she' rini yozgan adibdir. Shuningdek, Hakimjon ham juda ayyoronalik bilan oz ishlarini xalq orqali bajartiradi. Bolmasa oz lavozimidan foydalanib, jazolashga ottadi. Mana bugungi zamon tabiri bilan aytganda, oz lavozimini suiiste'mol qilish demakdir. Tanqidiy ruhda ravonlik bilan xalq dardini shunday yetkazib berishga urinib Muqimiyl buning uddasidan chiqadi. Hajviyada



"mavjud " tuzumdagи ijtimoiyadolatsizlik ,chor ma'murlari va mahaliy amaldorlarning òzboshimchaliklari va zòravonliklari - mustamlaka sharoitida soliq solish va undirib olish kabi hayotiy lavhalarda tarixan haqqoniy tasvirlangan" Shunday qilib Muqimiylònglidagi bu ögriqli sözlarini qalamga oladi va sözning kòpligini mazaning kamligi bilan baholab , "Tanobchilar" satirasini tamomlaydi.

Xulosa qilganda, Muqimiylòng asarlarida o'zi yashab o'tgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma'lumot bera olgan. Bundan tashqari u o'z davrida adolatparvarlardan biri bo'lgan va jamiyatdagi turli illatlarni har doim tanqid qilib kelgan yuqori lavozimga ega bo'lgan shaxslarni satirik hajvlari orqali ularni tanqid qilgan. U uchun o'zining yaxshi yashashi emas, balki jamiyat farovonligi birinchi o'rinda turgan. Oddiy mehnatkash aholini noqonuniy soliqlardan aziyat chekishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida kurashgan. U xalq qadriyat va ana'analarini hurmat qilgan va o'z davrida oddiy inson bo'lib, xalq orasida katta hurmatga ega bo'lgan shaxslardan biri bo'lgan. Uning hayot yo'li insonlar uchun o'rnak sifatida qarash mumkin. Chunki u har doim adolat tarifida bo'lgan va jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shishga harakat qilib yashagan. Shundan kelib chiqqan holda Muqimiyning hayotini va asarlarini nafaqat O'zbekistonda balkim butun dunyoda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyhati :

1. Muqimiylòng "Saylanma" T.: «Ma'naviyat», 2009 .
2. Abduğafurov A. " Muqimiylòng"
3. <https://tafakkur.net/tanobchilar/muhammad-aminxoja-muqimiylòng.uz>
4. http://ferlibrary.uz/f/muqimiylòng_saylanma.pdf
5. <https://talaba.su/muhammad-aminxoja-muqimiylòng/>
6. https://uzpedia.uz/kitob/adabiyot_6sinf_i/tanobchilar